



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QO'SHIQ ORQALI QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Zuhra Namozova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali  
Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamon yosh avlodi tarbiyasida musiqaning ahamiyati, bola ijodiy faoliyatiga ta'siri, ta'sir etishi bilan birgalikda, kichik yoshda va bolalik davlarida musiqani his etishi va unga bo'lgan munosabatidagi estetik, axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyaviy jarayonlar musiqiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, badiiy did, bolalar, tovush, musiqiy o'yin, musiqa uquvi, ritmik harakatlar, raqs, musiqiy did, estitika.

Insoniyatning ko'p asrlik o'tmishi davomida musiqa san'ati ta'lif-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning aqlan yetuk rivojlanishiga yordam berib kelgan, dunyoqarashini kengaytirgan. Musiqa kichik yoshdagi bolalarning so'z boyligini oshiradi, o'zining his-tuyg'ularini ifoda etishga o'rgatadi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar musiqiy qobiliyatlarni erta yosh paytidan rivojlanirish ayni muddao ekanligini tasdiqlaydi, chunki bolalikda yo'qolgan musiqiy his-tuyg'ularni katta yoshga yetganda topish mumkin emas[2]. Bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlanirishning eng assosiy bosqichi maktabgacha yoshdagi bo'lgan davrdir. Bu davrda bolaning musiqa madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan ota-onalar kelajakda bola shaxsining barkamol rivojlanishiga zamin yaratadi.

Qadimdan sivilizatsiya taraqqiyoti o'ta iqtidorli bo'lgan shaxslarga bog'liqligiga hech kim shubha qilmaydi. Butun yer yuzining turmush sharoiti va kelajagini yaxshilashga bo'lgan eng katta umidlar ijodiy fikrlaydigan avlod bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, yoshligida ular odatda «ochilish» va o'zlarining individualligini ko'rsatishga imkon berilmaydi. Ammo, bu doimiy tarzda ham shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham fojiali emas. Ijodiy rivojlanishga hissa qo'shadigan xarakter xususiyatlarini bolada ancha erta aniqlash mumkin. Bu vaqtda ota-onalar ularning rivojlanishiga e'tibor qaratishlari kerak. Ijodiy jihatdan qobiliyatli bo'lgan bola odatda ota-onalar tarafidan erta tan olinadi va ko'pincha «g'alati» sifatida tavsiflanadi. Bun kabi bolalarning bilimga bo'lgan cheksiz tashnaligi va cheksiz qiziquvchanligi ko'p hollarda kattalarni bezovta qiladi. Bolaning xatti-harakati qanchalik boshqacha va noan'anaviy bo'lsa, ota-onalar va boshqa oila a'zolari uni qo'rqtishlari va cheklashlari ehtimoli shunchalar yuqori bo'ladi. Torrance, ijodkorlikni o'lhash tizimini yaratuvchisi, irlsiy potentsial emas degan fikrga keladi. Eng muhim ko'rsatkich kelajakdagi ijodiy samara. Bolalar uchun musiqa va qo'shiqlar – ajoyib zavqli hayot dunyosi. Bolalar hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun yosh avlodga kichikligidan musiqa va qo'shiqlar dunyosi eshigini keng ochib berish, ularda musiqani idrok etish, tinglash va unga emotsiyonal munosabat bildirish qobiliyatini yuksaltirish muhimdir. Aks holda musiqa o'zining tarbiyaviy jihatdan vazifasini to'la to'kis ado etolmaydi. Musiqa – endi tug'ilgan bolaga ham ta'sir etuvchi san'atdir. Musiqa bolaga bevosita emotsiunal ta'sir o'tkazib, unga javoban dastlabki xatti-harakatlar qilishi, keyinchalik asosiy musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun zamin yaratadi. Ushbu yo'nalihsda bolaning rivojlanish jarayoni muvaffaqiyatli kechishi uchun musiqa tarbiyasi ishini amalga oshirishda musiqa va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim. Musiqa tarbiyasingning mazmuni bola tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davrda uni har xil musiqa faoliyat turlariga jalb etish, musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va e'tiborini shakllantirish, ayrim ijrochilik malakalarini tarkib toptirishdan iborat. Ilk yoshdagi bolakay musiqani atrofdagi boshqa tovush, shovqinlardan ajrata oladi. U o'z diqqatini taralayotgan kuyga qaratib, ma'lum bir vaqt ichida to'xtab qoladi, uni tinglab, kulib, guvillab, ayrim harakatlari bilan unga javob qaytaradi, kuchli hayajonlanish jarayoni yuzaga keladi. Kattaroq yoshdagi bolalar ayrim voqeiliklar o'rtasidagi aloqadorlikni anglab



yetish, oddiy umumlashtirish qobiliyati – masalan, musiqa xarakterini aniqlash, ijro etilayotgan asarning belgilariga qarab, u quvnoq, bayramona, og‘ir yoki qayg‘uli ekanligini ayta olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yosh bolalar turli xil xarakterdagi qo‘shiqlarni qanday kuylashni, og‘ir kuy yoki quvnoq qo‘shiqqasi qanday harakat qilish kerakligini yaxshi tushunadilar. Shu tarzda musiqaga bo‘lgan qiziqishlari ortadi: u yoki bu faoliyat turi, musiqa janriga moyillik bildiradilar. Olti-yetti yoshdagি bolalarda badiiy did – musiqa san’ati va uni ijrosiga baho bera olish qobiliyatini shakllanganligini kuzatish mumkin. Ushbu yoshdagи bolaning ovozi jarangdor va egiluvchan bo‘lib, u qo‘sishq aytaladi. Bolalarda ovoz diapozoni tenglashib, vokal intonatsiyasi turg‘unlashadi. To‘rt yoshli bolalar doimiy ravishda kattalar yordamiga muhtoj bo‘lsalar, muntazam tarzda o‘rganish natijasida ko‘pchilik olti yoshli bolalar o‘zlarini jo‘rsiz kuylay oladilar. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida bolalarning xatti-harakatlari o‘quv va ijodiy topshiriqlarni bajarishga qaratiladi. Ular ijro malakalarini takomillashtirib, o‘zlarini o‘ylab topgan ohanglarni improvizatsiya qiladilar. Raqs ijro etganda o‘ziga xos turli harakatlar, musiqiy harakatli o‘yinlar bajarishga harakat qiladilar. Estetik, axloqiy, aqliy, jismoniy tarbiyalarni birga qo‘shib olib borish, ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni mustahkamlash orqali bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishiladi. Bolalarga g‘oyaviyva axloqiy ta’sir etishni amalga oshirishda puxta ishlab chiqilgan dastur va bolalarning yoshiga mos tarzda asarlarni tanlash yordam beradi. Eng muhimi – “his-tuyg‘u maktabi”ni o‘tash bo‘lib, u musiqaning o‘ziga xos xususiyati, ya’ni tinglovchida emotsiyonal his-tuyg‘u uyg‘otishi tufayligina shakllanadi. Shuningdek, musiqa mashg‘ulotlarida o‘quv-bilish va aqliy faoliyat ham rivojlanadi. Bolalar musiqani diqqat bilan tinglab, juda ko‘p narsalar haqida bilishadilar. Ammo, ular uning umumiy jihatlari, yorqin obrazlarini idrok etadilar, xolos. Shu bilan birga bola oldiga ifodaviy vositalarni tinglash, ularni farqlash, taqqoslash, ajratib ko‘rsatish vazifalari qo‘yilsa, emotsiyonal munosabat o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bunday aqliy xatti-harakatlar bolaning hissiy dunyosi, his-tuyg‘ulari boyib borishi va kengayishi, ularni anglab yetishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarga tushunarli bo‘lgan barcha musiqiy faoliyat turlaridan unumli foydalanish, ularning ijodiy imkoniyatlarini faollashtirish orqaligina musiqiy-estetik tarbiyaning barcha vazifalariga erishish mumkin.

Musiqa san’ati, uning o‘ziga xos xususiyatlari pedagog kadr oldiga bir necha o‘ziga xos muhim vazifalar qo‘yadi:

1. Musiqa san’atiga mehr-muhabbat va qiziqishni tarbiyalash. Musiqaning tarbiyaviy ta’sir kuchidan keng foydalangan holdagina bolada emotsiyonal munosabat uyg‘otish va idrok etish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.
2. Bolalarni muayyan bir tizimdagи turli xil musiqa asarlari va qo‘llanilayotgan ifoda vositalari bilan yaqindan tanishtirish orqali ularning taassurotlarini boyitish. 3. Bolalarni har xil musiqa faoliyat turlariga jalb etgan holda musiqani idrok etish va qo‘sishq kuylash, ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqa asboblarida chalish sohasidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish, elementar musiqiy savodxonlikni rivojlantirish.
4. Bolalarda umumiy musiqa uquvi (sensor qobiliyat, lad tovushlarining baland-pastligini eshitish, ritmni his etish qobiliyati)ni rivojlantirish, ovoz pardalari va ifodali harakatlarni shakllantirish. Agar bu yoshdagи bola amaliy faoliyatga faol jalb etilsa va o‘rgatilsa, uning barcha qobiliyatları tarkib topadi va rivojlanadi.
5. Bolada musiqiy didning dastlabki ko‘rinishlari rivojlanishiga ta’sir etish. Musiqadan olgan taassurotlari va u haqidagi tasavvurlari asosida unda dastlab yangrayotgan asarni tanlab, keyinchalik unga baho bergen holda munosabat bildirish yuzaga kela boshlaydi.
6. Bolalarda musiqaga ijodiy munosabatni rivojlantirish. Eng avvalo, bunda ular uchun qulay bo‘lgan faoliyat turlari, ya’ni musiqiy o‘yin va xor bo‘lib kuylashda turli obrazlarni ifoda etish, tanish bo‘lgan raqlarda yangi harakatlarni qo‘llash, ohanglarni improvizatsiya qilishda bolalarning ijodiy yondashuvi nazarda tutilmoxda. Bu ularning mustaqil fikrashi, tashabbus ko‘rsatishi, o‘rgangan repertuaridan



kundalik hayotda foydalanishi, musiqa asbobida chalishi, kuylashi, raqsga tushishida namoyon bo‘ladi. Albatta, bunday ijodiy xatti-harakatlar o‘rta va katta yoshdagagi guruh bolalariga xosdir. Pedagog bolani maktabgacha bo‘lgan yosh davridanoq musiqa bilan muloqot qilishga o‘rgatib, oddiy (bolalar musiqa asboblarida aytilgan yoki ijro etilgan) kuylarni tinglash tajribasining ortib borishi, ovozi yoki harakatlari bilan unga javob qaytarishi, keyingi rivojlanish bosqichida faol musiqiy faoliyat yuritishiga poydevor yaratadi. Bolalarning barcha musiqiy faoliyat turlarini rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad – musiqani sensor (hissiy) idrok etish qobiliyatini shakllantirishdir. Ularda musiqisensor qobiliyatni rivojlantirish asosida tovushning to‘rtta xususiyati, ya’ni: tovushning baland-pastligi, uzun-qisqaligi, tembr va kuchini diqqat bilan tinglash, farqlash, ifoda etish yotadi. Amaliyotda didaktik xarakterga ega bo‘lgan bir qator (o‘yin shaklidagi) topshiriqlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular musiqa tovushlarini diqqat bilan tinglash, taqqoslash va farqlash, qo‘sishni intonatsiya bilan kuylash, ritmik harakatlar qilish, ayrim musiqa asboblarida ijro etishni talab etadi. Bunday topshiriqlardan eng oddiyalarini bolalar ilk yosh davridayoq bajara oladilar. Bolalarda musiqiy-sensor qobiliyatlarni rivojlantirish mashqlari o‘z didaktik vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga ajratiladi: - tovushning pastbalandligini farqlashga qaratilgan topshiriqlar; - tovushning uzun-qisqaligini farqlashga qaratilgan topshiriqlar; - tovush tembrini farqlashga qaratilgan topshiriqlar; - tovush kuchini farqlashga qaratilgan topshiriqlar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki musiqiy madaniyat – barkamol shaxsni tarbiyalash omilidir. Maktabgacha yoshdagagi bolalar musiqiy ta’lim va tarbiyasining mazmunini belgilash bir qator psixologik xususiyatlarni e’tiborga olishni taqozo etadi. Chunki, musiqiy bilim va ko‘nikmalarni egallash, avvalo, shaxsning ruhiy olamini va barkamolligini oshirish kafolatidir

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Yafalyan A.F. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов/Теория и методика музыкального воспитания в начальной школе// Современные научноемкие технологии. – 2009.
- 2.Mahkamova Sh. R. МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. Academic research in educational sciences, (3).
- 3.Mahkamova Sh. R., Asadullayeva Sh.R. «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Science and Education, 1(Special Issue 4).
- 4.Mahkamova Sh. R. . ХАЗРАТ НАВОЙЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. Science and Education, 1(Special Issue 4) 2020.
5. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI. Scientific Impulse, 2(16), 320-325.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
- 7.Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA’LIM TIZIMIDA KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
- 8.Hamidullo o‘g‘li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI. Scientific Impulse, 1(7), 648-653.
9. Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2023). SHAXSIY KOMPYUTER BILAN O‘ZARO ALOQADA BO‘LGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING ISH JOYI VA O‘RNI. Scientific Impulse, 1(11), 394-398.



10. Kamolovich, B. E., & Hamidullo o‘g‘li, T. H. (2023). SOHADA MICROSOFT OFFICE WORD 2003 VA 2021 DASTURLARI QO‘LLANILISHI VA AFZALLIKLARI. *Scientific Impulse*, 1(11), 376-382.

www.worldlyknowledge.uz